



**ENLIGHTENMENT ON THE VERGE OF CRISIS: SCHOOLS AND
MADRASAS OF THE FERGANA VALLEY IN THE LATE 19TH – EARLY
20TH CENTURIES**

Jamoliddinov Bobur Bakhodir o'gli

Master's Student in History Namangan State University

Abstract: The scientific article analyzes the reasons why traditional educational institutions such as muslim schools and madrasas in the Fergana Valley in the late XIX and early XX centuries lagged behind world civilization and why intellectuals of the time attempted to reform them, based on various literature and sources.

Keywords: traditional education, Governor-General of Turkestan P.K. Kaufman, curriculum, chairman, bek, N.P. Ostroumov, N.I. Ilminsky, academic week.

**INQIROZ YOQASIDAGI MA'RIFAT: XIX ASR OXIRI – XX ASR
BOSHLARIDA FARG'ONA VODIYSI MAKTAB VA MADRASALARI**

Jamoliddinov Bobur Boxodir o'g'li

Namangan davlat universiteti tarix yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Ilmiy maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg'ona vodiysidagi an'anaviy ta'lim muassasalari bo'lmish musulmon maktab va madrasalarning jahon sivilizatsiyasidan ortda qolish sabablari va nima uchun davrning ziyolilari tomonidan ularni isloh qilishga urinishlar bo'lgani turli xildagi adabiyotlar hamda manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: an'anaviy ta'lim, Turkiston general-gubernatori P.K.Kaufman, kurikulum, rais, bek, N.P.Ostroumov, N.I.Ilminskiy, o'quv haftasi.

Bugungi kunda mamlakatlar o'rtasidagi raqobat tabiiy boyliklar emas, balki ilm-fan yutuqlarini egallagan, innovatsion fikrlaydigan insonlar salohiyati bilan belgilanmoqda. Sh.Mirziyoyevning "Hozirgi paytda dunyo miqyosida raqobat qanday keskin tus olib borayotganini hammamiz ko'rib turibmiz. Bu shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan va innovasiya yutuqlarini keng joriy etish orqali munosib javob bera



olamiz.¹” degan fikrlari ham aynan shu haqiqatni ifodalaydi. Shu nuqtayi nazardan, o‘z tariximizdagi ta’lim tizimi tajribasini, uning yuksalish va tanazzul bosqichlarini o‘rganish bugungi islohotlar uchun muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ayniqsa, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda, jumladan, Farg‘ona vodiysida faoliyat ko‘rsatgan musulmon maktab va madrasalarining ahvoli bunga yorqin misol bo‘la oladi. Asrlar davomida buyuk allomalarni yetishtirgan, ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan bu maskanlar mazkur davrga kelib jamiyat ehtiyojlari va zamonaviy ilmiy taraqqiyot talablariga javob bermay qolgan. Shuning uchun ham bugun raqobatbardosh ta’lim tizimini barpo etilar ekan, o‘sha davrdagi muammolarni, ularni isloh etish yo‘llarini tahlil qilish va xulosalar chiqarish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Rossiyasi imperiyasi Qo‘qon xonligini bosib olishi davomida, harbiy va ma’muriy vazifalarni hal qilgan. Imperiya hukumati tili va dini boshqa bo‘lgan endigina bo‘ysundirilgan aholiga mafkuraviy ta’sir o‘tkazish masalasi ham turar edi. 1873-yili P.K.Kaufman podsho hukumatiga “Turkiston o‘lkasida xalq ta’limi va o‘quv ishlarini tashkil qilish rejasi”ni taqdim etdi. “Reja”da musulmon maktablariga qarama-qarshi ravishda, mahalliy bolalar uchun rus-tuzem maktablari ochish zarurligini ta’kidlab o‘tadi. Uning fikricha, faqat shunday maktablarga tubjoy aholini ruslashib ketishiga xizmat qilishi mumkin².

Xonliklar davrida madrasani bitirgan talabalar qozilik yoki boshqa munosib lavozimni egallash uchun xon yoki bekka iltimos bilan murojaat qilgan, hukmdor esa ularning bilim va qobiliyatini sinash maqsadida ilmiy munozara uyushtirgan. Qozi, muftiy, mudarrislardan iborat olim-ulamolar guruhi ishtirokida o‘tgan bunday bahslar saroy yoki yirik masjidlarda o‘tkazilib, nomzodning saviyasi xolisona baholangan. Rais lavozimiga ega bo‘lgan shaxs ota-onalarning farzandlarini maktabga berish jarayonini

¹ Mirziyoyev Sh. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 29 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining so‘zlagan nutqi // <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/shavkat-mirziyoevning-uzbekiston-respublikasi-mustaqilligining-29-yilligiga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi-tuliq/>

² Бендриков К. Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане. - М.,1960.- В.63



nazorat qilib, qabul va bitiruv muddatlarini tartibga solganligi uchun boshlang‘ich ta‘lim nisbatan tizimli tarzda boshqarilib turgan. Turkiston general-gubernatori P.K.Kaufman tashabbusi bilan mazkur lavozim bekor qilingach³, bolalarni maktabga qabul qilish va o‘qishni tamomlash muddati qat‘iy belgilari o‘z kuchini yo‘qotdi, natijada boshlang‘ich ta‘lim asta-sekin ma‘muriy boshqaruv mexanizmidan chiqib, nazoratsiz qolishga yuz tutdi.

1870-yillar o‘rtalaridan boshlab imperiya ma‘muriyati Turkiston o‘lkasida xalq ta‘limini o‘z mafkuraviy maqsadlariga bo‘ysundirishga kirishdi. 1876-yilda Turkiston general-gubernatori P.K.Kaufman Qozon shahrida Volga bo‘yi va boshqa hududlardagi rus bo‘lmagan xalqlar orasida maktab ishlarini yo‘lga qo‘yish bilan shug‘ullanib kelgan missioner N.I.Ilminskiy bilan uchrashib, uning tajribasini Turkistonda qo‘llash masalasini muhokama qildi.⁴ 1877- yil may oyida N.P.Ostroumov Toshkentga kelib, tez orada Turkiston o‘lkasi xalq bilim yurtlari inspektori lavozimiga tayinlandi hamda Ilminskiy ishlab chiqqan “mahalliy xalqlarni rus maorifi vositasida asta-sekin ruslashtirish” g‘oyalarini amaliyotga joriy eta boshladi.

Shu asosda 1879-yil 13-yanvarda Rossiya Imperiyasi Xalq maorifi vaziri graf D.Tolstoy “Turkiston o‘lkasi xalq bilim yurtlari inspektorlari dasturamalini” tasdiqladi⁵. Dasturga muvofiq, butun o‘lka bo‘yicha rus-tuzem maktablari tarmog‘ini kengaytirish, bu muassasalarda darslarni rus tilida olib borish, mahalliy bolalarni rus tili va madaniyatiga yaqinlashtirish asosiy maqsad qilib qo‘yildi. Hujjatda musulmon maktablari “eski va samarasiz” tarzda talqin qilinib, ularni iqtisodiy va ma‘muriy jihatdan siqib chiqarish, o‘rniga “davlat nazorati ostidagi” yangi maktablarni rivojlantirish siyosati belgilandi. Bunday yondashuv natijasida an‘anaviy maktab va madrasalarning mavqei zaiflashib, moliyaviy manbalari toraydi, ularni boshqarib turgan mahalliy lavozim va tartiblar esa birin-ketin bekor qilindi.

³ Azimboyev M.S. Turkiston an‘anaviy ta‘lim tizimida “Qadim” maktablari – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2015. B.153

⁴ Shamsutdinov R., Rasulov B. Turkiston maktab va madrasalar tarixi(o‘quv-uslubiy qo‘llanma). – Andijon,1995. – B.22

⁵ Shamsutdinov R., Rasulov B. Turkiston maktab va madrasalar tarixi(o‘quv-uslubiy qo‘llanma). – Andijon,1995. – B.23



Diniy ta'lim tizimidagi birinchi muammo – maktab va madrasalarning nizomsizligi hamda yagona o'quv dasturining yo'qligi edi. O'qitiladigan fanlar ro'yxati, ularning ketma-ketligi va mazmuni aniq belgilab qo'yilmagani sababli, darslar ko'pincha muallimning kayfiyati va shaxsiy qarashlariga qarab olib borilgan. Bunday sharoitda ta'lim jarayonida ilmiy izchillik, bosqichma-bosqich murakkablashib borish tamoyili, o'quvchining bilim darajasini tizimli nazorat qilish kabi asosiy pedagogik talablar to'liq ta'minlanmagan.

Manbalarda diniy ta'lim muassasalarida o'quv haftasi ham to'liq va rejali tashkil etilmagani qayd etiladi: amalda darslar faqat to'rt kun davom etib, chorshanba, payshanba va juma kunlari o'yin-kulgi, bekorchi mashg'ulotlar, mudarrisarga choy tashish va boshqa xo'jalik ishlarida xizmat qilish bilan o'tgan⁶. Shunday "bo'sh kunlar" ning ko'pligi o'quvchilarning bilim olishga ajratadigan vaqtini kamaytirib, ta'lim jarayonini rasmiyatchilikka aylantirgan. Natijada, o'quvchi bir necha yil madrasada o'qib yurgan bo'lsa-da, ma'lum bir dastur bo'yicha aniq bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmas, ayrim matnlarni yodlashdan nariga o'tolmay qolgan.

Davr ziyolilari ana shunday holatni keskin tanqid qilib, maktab va madrasalarni "beusul va benizom" deb atagan. Bu ta'rif o'quv jarayonida qat'iy tartib, uslub va maqsadga yo'naltirilganlik yetishmagani, ta'limning natijadorligi esa deyarli o'lchanmagani, o'qishning formal tus olib qolganini anglatadi. Nizom va dastur bo'lmaganligi tufayli turli hudud va muassasalarda ta'lim darajasi keskin farqlanib ketgan, bu esa keyinchalik isloh zaruratini tug'dirib, jadidlar va boshqa ma'rifatparvarlar tomonidan yangicha, rejali va bosqichli o'quv dasturlarini joriy etish harakatiga turtki bo'lgan.

Bu davrdagi ikkinchi yirik muammo – o'quv mazmunining biryoqlama diniylashuvi va dars jadvalida fanlarning mutanosib taqsimlanmaganidir. Tafsir,

⁶ Raximjanova N.Q. Turkiston davriy matbuotida islom dini va ma'rifatining dolzarb masalalari (Tarixshunoslik, manbashunoslik, tarixiy tadqiqot usullari ixtisosligi bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi) - Toshkent, 2020 – B.102



hadisshunoslik, fiqh, islom tarixi kabi fanlar ham o‘zaro tizimli ketma-ketlik asosida emas, ko‘proq alohida matnlarni sharhlash va yodlash ko‘rinishida o‘qitilgan, bu esa o‘quvchida yaxlit ilmiy tasavvurni shakllantirishga imkon bermagan. Diniy bilimlarning o‘zi ham aniq o‘quv dasturi va bosqichlarga bo‘lingan kurikulum⁷ asosida emas, balki an’anaviy rivoyatlar, fatvolar va turli risolalarni o‘qish orqali berilgan, natijada dars jadvali shaklan to‘la ko‘rinsa-da, mazmunan tartibsiz va samarasiz bo‘lib qolgan.

Bundan ham muhim jihat – dunyoviy fanlarning deyarli chetga surib qo‘yilganidir. XX asrgacha ayrim madrasalarda arifmetikaning murakkab amallari, geometriyaning o‘lchov bobiga oid masalalar maxsus tarzda o‘rgatilgani ma’lum, ammo bu amaliyot keng qamrovli va muntazam bo‘lmagan. Keyingi yillarda ta’limning asosiy og‘irligi fiqh – islom huquqshunosligi va boshqa diniy fanlarga o‘tib ketib, matematika, tabiiyot, tarix, geografiya, texnikaga oid boshlang‘ich tasavvurlar kabi fanlar butunlay yoki deyarli o‘qitilmay qo‘yildi. Natijada o‘quvchilar diniy-huquqiy masalalarda ma’lum darajada savod hosil qilsalar-da, zamonaviy fan-texnika yutuqlarini tushunishga xizmat qiladigan bilimlardan mosuvo bo‘lib qolganlar.

XX asr boshlariga kelib, jahon miqyosida sanoat gurkirab rivojlangan, yangi texnika va texnologiyalar jadal joriy etilgan, ishlab chiqarish, transport va aloqa tizimlari ilmiy yondashuv asosida yangilanayotgan bir sharoitda, Turkistondagi an’anaviy maktab va madrasalarning dars jadvali zamon talabidan tobora ortda qola boshladi. Matematik, tabiiy-ilmiy va amaliy-muhandislik yo‘nalishidagi fanlarning e’tibordan chetda qolishi, ta’lim mazmunining biryoqlama diniy masalalarga qaratib yuborilishi jamiyatning global raqobatga kirishish salohiyatini keskin pasaytirdi. Natijada bir zamonlar yetuk olimlar va qozilarni yetishtirgan bu ilmiy muhit zamonaviy ilm-fan rivojidan uzilib, o‘z tarixiy nufuzini saqlab qola olmaydigan darajaga yetdi.

⁷ Kurikulum – bu ma’lum ta’lim bosqichi yoki o‘quv yurtida qaysi fanlar, qanday tartibda, necha soat va qaysi usul bilan o‘qitilishini oldindan belgilab beradigan puxta rejalashtirilgan dasturdir. Unda darslarning maqsadi, mazmuni, ketma-ketligi, baholash mezonlari va o‘quvchi dars oxirida nimalarni bilishi va qila olishi aniq yozib qo‘yiladi.



Aynan mana shu ziddiyat – dunyo ilm-fan va texnika taraqqiyoti bilan mahalliy ta'lim tizimi o'rtasidagi chuqur tafovut jadid ma'rifatchilarining ruhiy-ma'naviy uyg'onishiga kuchli turtki berdi. Ular vatan ravnaqi, millat istiqboli avvalo zamonga mos, keng qamrovli ta'lim tizimiga bog'liqligini anglab, an'anaviy maktab va madrasalarni isloh qilishni o'z oldilariga strategik vazifa qilib qo'ydilar. Jadidlar nazarida, faqat diniy masalalar bilan cheklangan, dunyoviy fanlarni e'tiborsiz qoldirgan ta'lim muassasalari diniy mutaassiblikdan chiqish, ijtimoiy-siyosiy ongini yangilash va mamlakatni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish uchun yetarli kuchga ega emas edi. Shu bois ular yangi usul maktablarini tashkil etib, o'quv dasturiga matematika, tabiiyot, tarix, geografiya, til va adabiyot kabi fanlarni kiritishga, ta'lim jarayonini zamonaviy metodlar asosida yo'lga qo'yishga intildilar, ana shu ishtiyoq Turkistondagi ma'rifiy islohotlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimboyev M.S. Turkiston an'anaviy ta'lim tizimida "Qadim" maktablari. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2015.
2. Alimov I.A. O'zbekistonda vaqf mulklarining tugatilishi (1917–1929 yy). – Toshkent: Fan, 2009.
3. Махкамova N. Ислам и власть (20-е гг. XX в.) // Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. – Toshkent, 2006.
4. Qurbonov S. Ma'rifat va din. – Toshkent: O'zbekiston, 1980.
5. Raximdjanova N.Q. Turkiston davriy matbuotida islom dini va ma'rifatining dolzarb masalalari. – Toshkent, 2020.
6. Shamsutdinov R., Rasulov B. Turkiston maktab va madrasalar tarixi (o'quv-uslubiy qo'llanma). – Andijon, 1995.
7. Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане. – Москва, 1960.